



GʻAFUR GʻULOM ASARLARI XALQ DARDINING IFODASI

Eraliyeva Malika Tohir qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti 3-bosqich talabasi

Baxtiyorova Farangiz Ulugʻbek qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Gʻafur Gʻulomning nazm va nasrdagi deyarli barcha asarlari ohangining oʻzgachaligi, zarbning milliyligi bilan ajralib turadi. U oʻz xalqiga nisbatan chuquq hurmat sohibi edi. Uning har bir asarida xalqni qiynayotgan muommolar aks ettirilgan. Ushbu maqolada Gʻafur Gʻulom sheʼrlari va asarlarida xalqni aziyat chekishiga olib kelayotgan holatlar tahlil qilinadi.*

Kalit soʻzlar: *Adabiy hodisalar, “Sen yetim emassan” sheʼri, urush olib kelgan oqibatlar, yolgʻonchilik illati, vijdonlilik, bolalarni urushga jalb etish.*

Annotation: *Almost all of Gafur Ghulam’s works in verse and prose are distinguished by the uniqueness of the tone and the nationality of the composition. He had great respect for his people. In each of his works, the problems that torment the people are reflected. This article analyzes the situations that cause people to suffer in Gafur Ghulam’s poems and works.*

Key words: *Literary events, the poem “You are not an orphan”, the consequences of war, the evil of lying, conscientiousness, involvement of children in war.*

Аннотация: *Почти все произведения Гафура Гулама в стихах и прозе отличаются своеобразием тона и народностью композиции. Он очень уважал свой народ. В каждом его произведении отражены проблемы, терзающие народ. В данной статье анализируются ситуации, заставляющие людей страдать в стихах и произведениях Гафура Гулама.*

Ключевые слова: *Литературные события, стихотворение “Ты не сирота”, последствия войны, зло лжи, совесть, вовлечение детей в войну.*

(Kirish qism)

Oʻzbek xalqining sevimli yozuvchi va shoiri Gʻafur Gʻulom nasr va nazmda deyarli barcha asarlarining oʻzgachaligi, zarbning milliyligi bilan ajralib turadi. Badiiy asarlar milliylik tashqi libos ham, mavzu yoʻnalishi ham emas, balki estetik mohiyatdir. Gʻafur Gʻulom borligʻi va oʻzligi bilan oʻzbek edi. Uning yozgan har bir asaridan xalqni gʻam-tashvishiga nisbatan kuyunchaklik mavjud. Asarlarida badiiy did va ichki maʼno bilan oʻz xalqining, millatining ogʻir hayot tarzini baʼzan hazil tarzida va baʼzan kuchli taʼsirchanlik bilan yoritib bergan.

(Metodlar)

Mazkur maqolada kuzatish, analiz, sintez, mantiqiylik, qiyosiy-huquqiy hamda ilmiy bilishning boshqa usullari qoʻllaniladi. Gʻafur Gʻulomning nasr va nazm yoʻnalishidagi ijod namunalari bilan chuqur tanishib chiqish va ularni bir-biriga maʼno va adabiy uslub jihatidan qayta qiyosiy-tahlil qilish orqali maqola yozildi.



(Muhokamalar va natija)

Adabiy hodisalarni yangicha izohlaydigan Rodinova, V. Fomin singari rus olimlari ta'kidlaganlarki: “ Adabiy aralashuvning turlari va yo'nalishlarini tahlil etishda ohang tahlili alohida mavqe tutishi kerak. Zero, badiiy ohang hamisha mazmunga ega va qadriyatlariga yo'naltirilgan bo'lib, muallif badiiy niyatidan o'quvchining ruhi tozarishida qadar bo'lgan barcha estetik kommunikatsiya bosqichlarini qamrab oladi¹⁵”. Chindan ham, qanday salmoqli badiiy hodisa, avvalo, ohang sifatida paydo bo'ladi. Shundan keyingina o'zgacha shakllarga kiradi. G'afur G'ulom asarlarining har bir shu kabi bosqichlari millatni tasvirlash, ularga alohida ehtirom ko'rsatishdan iboratdek, go'yo. Shuningdek, G'afur G'ulom o'z she'rlarida o'zbekning ajralib turuvchi jihatlarini butun dunyoga mashhur qilishni istagnligi ayrim satrlarda o'z isbotini topadi. Masalan, “San'atim” she'rida “O'zbekiston shabcharog'i, olmosi Farg'onadir, yerda yulduz kabi har yerda gavhar yonadir, har taraf bog'i Eram, har manzil koshonadir, quvnagan xalqning labida kanda bo'lmay yonadir, chunki unga baxtu iqbol har zamon dildoru yor¹⁶”. Ko'rib turganingizdek, yurtimizning go'zal shaharlarini she'riy matn shaklida keltirilgan. Shamchirog', olmosga qiyoslanayotgan shahar – Farg'ona. G'afur G'ulom har bir so'zni o'z o'rnida qo'llab o'quvchining ushbu shaharga bo'lgan qiziqishini orttirmoqda.

Butun dunyo millatlari boshiga tushgan og'ir musibatli kunlar bo'lmish, “Ikkinchi jahon” urushi yillarida bizning xalqimiz ham aziyat chekdi. Xalqning dardi, g'am-anduhini tasvirlashga intilgan G'afur G'ulom urush manzaralarini tasavvur qilishga qiynaladigan, hozirgi zamonning erka bolalariga shu darajada ko'rsatib bera olganki, bugun bu she'ni o'qigan har bir kimsa, o'sha davr nafaqat o'zbek bolalari, balki ro'zg'or ma'suliyati boshiga tushgan ayollar-u, erkaklar, e'tiborsiz qoldirilgan qariyalarga nisbatan achinish hissi uyg'onadi. Misol uchun quyidagi satrlardagi millat tashvishi kishini qayg'uqa soladi. “Nega cho'chib tushding? Murg'ak tasuvvur, Go'dak hayolingga Nimalar keldi? Balki Odess dahshati, Kerch fojiasi, Yovvoyi maxluqlar, Qonxo'r vahshiylar...Mammasi kesilgan Sho'rlik onangning Pajmurda gavdasi Ko'zing o'ngida¹⁷”. (Sen yetim emassan she'ri). Bir bolakayning o'z ota-onasining o'liklarini ko'rishi, uning murg'ak qalbini sindirib, suvdek musaffo ko'nglini hiralashtiradi. Ular ko'z o'ngida sodir bo'layotgan vahshiyliklarni ko'rib, o'zlari ham o'rnak oladi. Zero, bir o'simlikni ham noqulay sharoitda yoki shovqin aralash og'riqli gaplar bilan o'stirangiz, u gullash u yoqda tursin, hatto millimetrga ham ulg'aymaydi. Aksincha, so'lib qoladi. Bolalar ham o'sub-unuvchi bir niholdek. Ular qanday parvarish qilinsa, shunday yo yetuk shaxs sifatida yoki baxtsiz kimsa tariqasida ulg'ayadi. Bugungi tahlkali zamonda jahondagi “askar bolalar” soni 250 ming nafardan oshib ketganligi

¹⁵ Теория школы концепции (критические анализы). Художественная коммуникация и семиотика (сборник статей). – М.: “Наука”, 1986. – С.184.

¹⁶ G'afur G'ulom. Tanlangan asarlar. Nazm va nasr. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021 y. 34-b.

¹⁷ G'afur G'ulom. Tanlangan asarlar. Nazm va nasr. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021 y. 44-b.



aytilmoqda¹⁸. Dunyoda globalashuv jarayonlari shiddat bilan kechmoqda. Jahonning ko'plab mamlakatlarida yoshlar turli illat va tahdidlar, ijtimoiy saytlarda targ'ib etilayotgan buzg'unchi g'oyalar ta'siriga tushib qolmoqda. Bolalar o'zini “Islom Davlati” deya atayotgan terror tashkiloti Iroq hududlarida hattoki bolalar mashq lagerlarini barpo etganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Vaholangki, 1949-yil 12-avgustda¹⁹ qabul qilingan Xalqaro qurolli mojarolar qurbonlarini himoya qilish haqida Jeneva Konvensiyasining Birinchi protokoliga Qo'shimchada, 1977-yil iyun oyida qabul qilingan Qo'shimcha Protokolda 15 yoshdan kichik bo'lgan bolalarning qurolli mojaralarda ishtirok etishi qat'iy ta'qiqlanadi. Bu masala bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Kotibi ushbu yosh chegarasini 18 yosh qilib belgilash bilan bog'liq chaqiriq bilan chiqdi. Shuni inobatga olish kerakki, bolakayning murg'ak qalbi kichik shovqindan ham ta'sirlanishi mumkin. Urushdek ofatlarning guvohi bo'lish uchun juda kichiklik qiladi.

“Chorbozorchi” hikoyasida ham xalqni qiynab kelgan kisavurchilik, tinmasdan yolg'on gapirish, sifatsiz mahsulotlar bilan savdogarga chin ko'ngildan ishonayotgan xaridorni aldash holatlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, asar **Ahmad Sedob** tasbeh, duo qog'ozlarini sotganda ham juda biyronligi keltiriladi.

- Makkadan kelgan, atigi ikki dona edi, bittasini noilojlikdan sotaman, - deydi tasbehni ko'rsatib.

U boshqa mahsulotlarni ham shu tarzda yolg'on maqtovlar bilan sotar edi.

Bugungi kunda ham ham ayrim sotuvchilar sifatsiz mahsulotlarini sifatli, arzonlarini esa qimmat deb sotadi.

“Farzandi Solih” hikoyasida ham xuddi shunday vaziyatga duch kelish mumkin. Ostonaqul otasi bergan 4 ta chimmatni, teshilib ketgan namatga alishadi. Bunga uni soxta maqtovlari bilan namat sotuvchisi undaydi. Ostonaqul bo'lsa savdoni tushunmaydi, u kabi bu sohadan yaxshi xabardor bo'lmaganlarni aldab sotish na vidonga va na iymonga to'g'ri keladi.

G'afur G'ulom ham o'zbek xalqini bir-biriga bo'lgan ishonchini so'ndiruvchi yolg'onchilik illatini qoralagan. Urush balosini asarlarida tasvirlash orqali esa bugungi o'sib kelayotgan yosh avlodga tinchlikning qadriga yetishni o'rgatmoqda.

(Xulosa)

G'afur G'ulom o'zbek xalqini qiynab kelayotgan muammolarni kuchli badiiy estetika bilan yoritib bera olgan adibdir. U har bir o'quvchini adolatli bo'lishga, vatanni sevishga, insonni ulug'lashga, rostgo'ylikni odat qilishga, vijdonlilik libosini hamisha kiyishga chorlaydi. Uning asarlarini chuqurroq o'rganishga kirishar ekansiz, uning naqadar xalqparvar, kuyunchak inson bo'lganligini payqaysiz. G'afur G'ulom xalqni, millatni ulug'lovchi shoir va yozuvchi edi. U she'rlarida odamning umri cheku chegarasiz vaqtga

¹⁸ Qurolli mojarolar girdobida qolgan bolalar taqdiriga kim javobgar?

<https://m.aniq.uz/uz/yangiliklar/qurolli-mojarolar-girdobida-qolgan-bolalar-taqdiriga-kim-javobgar#bounce>

¹⁹ The Geneva Convention of 12 August 1949., Available at: <https://www.icrc.org/en/publication/0173-geneva-conventions-august-12-1949>



solishtirganda, bor-yo'g'i bir lahza xolos. Ammo shu lahza ichida ezgulikka xizmat qiladigan ishlar qilish zarurligi o'zining go'zal ifodasini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Теорияб школыб концепции (критические анализы). Художественная коммуниция и семиотика (сборник статьяй). – М.: “Nauka”, 1986. – С.184.

2. G'afur G'ulom. Tanlangan asarlar. Nazm va nasr. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021 y. 34-b.

3. G'afur G'ulom. Tanlangan asarlar. Nazm va nasr. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021 y. 44-b.

4. Qurolli mojarolar girdobida qolgan bolalar taqdiriga kim javobgar?

<https://m.aniq.uz/uz/yangiliklar/qurolli-mojarolar-girdobida-qolgan-bolalar-taqdiriga-kim-javobgar#bounce>

5. The Jeneva Convention of 12 August 1949., Available at: <https://www.icrc.org/en/publication/0173-geneva-conventions-august-12-1949>